

Навоий вилояти Навоий шаҳар
Давлат хизматлари маркази

томонидан
2024 йил "20" август даги
2552224-сон билан



“РУЙХАТГА ОЛИНГАН”

“НКМК” АЖ Акциядорларнинг
2024 йил “28” июндаги 3-сонли
йиллик Умумий йигилишига
6-сонли ИЛОВА

“Навоий кон-металлургия комбинати”
Акциядорлик жамияти акциядорларининг
2024 йил “28” июндаги 3-сонли
йиллик Умумий йигилиши билан
“ТАСДИҚЛАНГАН”



**«NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI»
АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИНИНГ**

УСТАВИ

(ЯНГИ ТАХРИРИ)

MUNDARIJA

1.	UMUMIY QOIDALAR	3
2.	JAMIYATNING FIRMA NOMI, JOYLASHGAN MANZILI VA ELEKTRON POCHTA MANZILI	3
3.	JAMIYATNING HUQUQIY MAQOMI	3
4.	JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI)	4
5.	JAMIYAT AKSIYADORINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI	6
6.	JAMIYATNING USTAV FONDI (KAPITALI)	7
7.	JAMIYAT AKSIYALARINING SONI, NOMINAL QIYMATI VA TURLARI	7
8.	JAMIYATNING KORPORATIV OBLIGATSIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI	7
9.	JAMIYAT USTAV FONDI (KAPITALI) NI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI	7
10.	JAMIYATNING ZAXIRA VA BOSHQA FONDLARI	8
11.	DIVIDENDLARNI TO'LASH TARTIBI	8
12.	JAMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI	9
13.	AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI	9
14.	KUZATUV KENGASHI	11
15.	BOSHQARUV	15
16.	KUZATUV KENGASHI VA BOSHQARUV A'ZOLARINING JAVOGBARLIGI	19
17.	MINORITAR AKSIYADORLAR QO'MITASI	19
18.	ICHKI AUDIT XIZMATI VA TASHQI AUDITORLIK TASHKILOTI	20
19.	KOMPLAYENS XIZMATI	21
20.	KORPORATIV KOTIBIYAT	21
21.	BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTI, YILLIK MOLIYAVIY HISOBOT VA BOSHQA HISOBOTLAR	22
22.	JAMIYAT TOMONIDAN AXBOROT VA MUHIM FAKTLARNI OSHKOR QILISH. JAMIYAT HUJJATLARI	23
23.	YAKUNIY QOIDALAR	23

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – “Jamiyat”) O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-370-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Kon-metallurgiya tarmog‘i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4124-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasini isloh qilish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4629-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-martdagi “Navoiyuran” davlat korxonasi, “Navoiy kon- metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” davlat muassasasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi 170-son Qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar (keyingi o‘rinlarda – “Qonunchilik”) hamda mazkur Ustav (keyingi o‘rinlarda – “Ustav”) asosida tashkil etiladi va o‘z faoliyatini amalga oshiradi.
- 1.2. Jamiyatning huquqiy maqomi, uning aksiyadorlari huquq va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-370-son Qonuni va Ustav bilan belgilanadi.

2. JAMIYATNING FIRMA NOMI, JOYLASHGAN MANZILI VA ELEKTRON POCHTA MANZILI

- 2.1. Jamiyatning to‘liq firma nomi:
 - (1) davlat tilida (lotin alifbosida): **“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati;**
 - (2) davlat tilida (kirill alifbosida): **“Навоий кон-металлургия комбинати” акциядорлик жамияти;**
 - (3) rus tilida: **акционерное общество «Навоийский горно-металлургический комбинат»;**
 - (4) ingliz tilida: **“Navoi Mining and Metallurgical Company” Joint-Stock Company.**
- 2.2. Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:
 - (1) davlat tilida (lotin alifbosida): **“NKMK” AJ;**
 - (2) davlat tilida (kirill alifbosida): **“НКМК” АЖ;**
 - (3) rus tilida: **АО «НГМК»;**
 - (4) ingliz tilida: **“NMMC” JSC.**
- 2.3. Jamiyatning joylashgan manzili (pochta manzili): 210100, O‘zbekiston Respublikasi, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy
- 2.4. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@ngmk.uz
- 2.5. Jamiyatning rasmiy korporativ veb-sayti: www.ngmk.uz.

3. JAMIYATNING HUQUQIY MAQOMI

- 3.1. Jamiyat yuridik shaxs bo‘lib, o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan ustav fondi (kapitali) ga berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

- 3.2. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.
- 3.3. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etiladi.
- 3.4. Jamiyat Qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlarini ochishga haqlidir.
- 3.5. Jamiyat firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan manzili ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega bo'lishga haqlidir. Muhrda bir vaqtning o'zida firma nomi boshqa istalgan tilda ko'rsatilishi mumkin.
- 3.6. Jamiyat firma nomi yozilgan shtamp va blanklarga, o'z timsoliga, shuningdek, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqlidir.
- 3.7. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli bo'lgan barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.
- 3.8. Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.
- 3.9. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Jamiyat majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli bo'lgan aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.
- 3.10. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.
- 3.11. Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.
- 3.12. Jamiyat Qonunchilikda belgilangan tartibda filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishga haqlidir.
- 3.13. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shakldagi sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish va (yoki) ularga ega bo'lishi mumkin.
- 3.14. Jamiyat Qonunchilikda belgilangan tartibda korxonalar, tashkilotlar va boshqa tijorat tuzilmalarini tashkil etishda ishtirok etishga haqlidir.

4. JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI)

- 4.1. Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi Jamiyat aksiyadorlari manfaatlarida Ustavda ko'rsatib o'tilgan faoliyat turlarini amalga oshirish orqali foyda (daromad) olishdan iborat.
- 4.2. Jamiyat faoliyatining sohasi (asosiy yo'nalishlari) quyidagilar hisoblanadi:
 - (1) qimmatbaho metallarni, qimmatbaho toshlarni qazib olish, ishlab chiqarish va qayta ishlash;
 - (2) tarkibida qimmatbaho va noyob metallar mavjud bo'lgan sanoat mahsulotlarini qayta ishlash;
 - (3) affinaj qilingan oltinni sotish;
 - (4) portlovchi va zaharli moddalarni, ular qo'llaniladigan materiallar va buyumlarni, shuningdek portlatish vositalarini ishlab chiqarish, transportda tashish, saqlash va realizatsiya qilish;

- (5) portlatish ishlarini bajarish;
 - (6) geologiya-qidiruv ishlarini bajarish;
 - (7) geodeziya faoliyati;
 - (8) xavfi yuqori bo'lgan obyektlarni va potensial xavfli ishlab chiqarishlarni loyihalashtirish, qurish va ishlatish;
 - (9) kapital qurilish;
 - (10) teleradio eshittirishlar translyasiyasi tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish va ishlatish;
 - (11) telekommunikatsiyalarning mahalliy, shaharlararo va xalqaro tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ishlatish va ularga xizmatlar ko'rsatish;
 - (12) ko'chma radiotelefon aloqasi tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ishlatish va ularga xizmatlar ko'rsatish;
 - (13) shaxsiy radiochaqiruv tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ishlatish va ularga xizmatlar ko'rsatish;
 - (14) ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ishlatish va ularga xizmatlar ko'rsatish;
 - (15) axborotni kriptografik himoya qilish vositalarini loyihalashtirish, qurish va ishlatish, ta'mirlash va ulardan foydalanish;
 - (16) yong'inga qarshi avtomatlar, qo'riqlash, yong'in va qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi vositalarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish;
 - (17) ichki qatnovda yo'lovchilar va yuklarni temir yo'lda tashish;
 - (18) avtomobil transportida yo'lovchilar va yuklarni shahar, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro tashish;
 - (19) ishlab chiqarish maqsadlari uchun prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tashish, saqlash va foydalanish;
 - (20) uskunasozlik;
 - (21) qurilish materiallarini ishlab chiqarish;
 - (22) Jamiyat mablag'lari, shuningdek, shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshirish.
- 4.3. Maxsus litsenziya yoki boshqa ruxsat etish hususiyatiga ega bo'lgan hujjat olishni talab qiladigan faoliyat turlari Qonunchilikda o'rnatilgan tartibda bunday litsenziya va (yoki) ruxsatnoma olingandan keyin amalga oshiriladi.
- 4.4. Jamiyat shuningdek, faoliyatning quyidagi turlarini amalga oshirishga haqlidir:
- (1) ulgurji savdo va savdo-vositachilik faoliyati;
 - (2) tabiiy va suyultirilgan uglevodorod gazini realizatsiya qilish;
 - (3) bojxona omborini ta'sis etish;
 - (4) o'lchov vositalarini tayyorlash, ta'mirlash, realizatsiya qilish va ijaraga berish;
 - (5) o'z ehtiyojlari va boshqa iste'molchilarning ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish-texnik maqsadlardagi mahsulotlarni ishlab chiqarish;
 - (6) lyuminessent lampalarni demerkurizatsiyalash;
 - (7) temir yo'l transportida yuk karvonsaroylarini tashkil etish.

- 4.5. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida Qonunchilik bilan belgilangan tartibda faoliyatning boshqa har qanday turlarini amalga oshirishga haqlidir.

5. JAMIYAT AKSIYADORINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Jamiyat aksiyadorlarining shu jumladan, imtiyozli aksiyalar egalarining (agar Jamiyat shunday aksiyalarni chiqargan bo'lsa) huquq va majburiyatlari Qonunchilik va Ustav bilan belgilanadi.
- 5.2. Jamiyat aksiyadori quyidagi huquqlarga ega:
- (1) Jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilish;
 - (2) depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
 - (3) Jamiyat sof foydasining bir qismini dividendlar ko'rinishida olish;
 - (4) Jamiyat tugatilgan taqdirda o'ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
 - (5) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
 - (6) Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
 - (7) olgan dividendlarni erkin tasarruf etish;
 - (8) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
 - (9) o'ziga yetkazilgan zararining o'zni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
 - (10) o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
 - (11) qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.
- 5.3. Jamiyat aksiyadori qonunchilik va Ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.
- 5.4. Jamiyat aksiyadori quyidagilarni:
- (1) Jamiyat aksiyalarining haqini qonunchilikda, Ustavda, aksiyalar chiqarish (emissiya) to'g'risidagi qarorlarda belgilangan muddatlarda, usullarda va tartibda to'lash;
 - (2) Jamiyat yoki uning faoliyati to'g'risidagi xizmat, tijorat siri bo'lgan va qonunchilik bilan himoya qilinadigan boshqa maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;
 - (3) Qonunchilik va Ustavga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.
- 5.5. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va Qonunchilikda belgilangan tartibda beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.
- 5.6. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

6. JAMIYATNING USTAV FONDI (KAPITALI)

- 6.1. Jamiyatning Ustav fondi (kapitali) aksiyadorlar olgan (joylashtirilgan aksiyalar) Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi.
- 6.2. Ustav fondi (kapitali) miqdori **14 999 832 119 (o'n to'rt milliard to'qqiz yuz to'qson to'qqiz million sakkiz yuz o'ttiz ikki ming bir yuz o'n to'qqiz)** dona oddiy aksiyalarga bo'lingan **14 999 832 119 000 (o'n to'rt trillion to'qqiz yuz to'qson to'qqiz milliard sakkiz yuz o'ttiz ikki million bir yuz o'n to'qqiz ming)** so'mni tashkil etadi.
- 6.3. Jamiyatning ustav fondi (kapitali) Jamiyat mol-mulkinging Jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

7. JAMIYAT AKSIYALARINING SONI, NOMINAL QIYMATI VA TURLARI

- 7.1. Jamiyat tomonidan **14 999 832 119 (o'n to'rt milliard to'qqiz yuz to'qson to'qqiz million sakkiz yuz o'ttiz ikki ming bir yuz o'n to'qqiz)** dona oddiy aksiyalar joylashtirilgan.
- 7.2. Jamiyatning har bir oddiy aksiyasi nominal qiymati **1.000 (bir ming)** so'mni tashkil qiladi.
- 7.3. Jamiyat Qonunchilikda belgilangan tartibda o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo'li bilan ochiq obuna o'tkazishga yoki xususiy joylashtirish yo'li bilan yopiq obuna o'tkazishga haqlidir.
- 7.4. Jamiyat oddiy aksiyalar bilan bir qatorda imtiyozli aksiyalarni ham joylashtirishi mumkin. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati Jamiyat ustav fondi (kapitali) ning 25% (yigirma besh foizi) dan oshmasligi kerak.
- 7.5. Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni Qonunchilik va Ustav bilan belgilangan tartibda yiriklashtirish yoki maydalashga haqli bo'lib, bunda Ustavga joylashtirilgan aksiyalarning nominal qiymati va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritilishi shart.

8. JAMIYATNING KORPORATIV OBLIGATSIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI

- 8.1. Jamiyat korporativ obligatsiyalar shu jumladan, Jamiyatning aksiyalariga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalari hamda boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirishga haqlidir.
- 8.2. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalariga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish Qonunchilik va Ustav bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9. JAMIYAT USTAV FONDI (KAPITALI)NI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI

- 9.1. Jamiyatning ustav fondi (kapitali) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin. Qo'shimcha aksiyalar faqat Ustavda belgilangan, e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.
- 9.2. Jamiyat ustav fondini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori - nominal qiymati **1 000 (bir ming)** so'm bo'lgan **1.000.000.000.000 (bir trillion)** so'm miqdoridagi **1.000.000.000 (bir milliard)** dona oddiy aksiyalardan iborat.
- 9.3. Jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni ko'paytirish to'g'risidagi va Ustavga Jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.
- 9.4. Jamiyatning ustav fondi (kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki

aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo‘li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin.

- 9.5. Jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni kamaytirish to‘g‘risidagi va Ustavga tegishli o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.
- 9.6. Jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni kamaytirish, shuningdek, kreditorlarni bu to‘g‘risida xabardor qilish Qonunchilik bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10. JAMIYATNING ZAXIRA VA BOSHQA FONDLARI

- 10.1. Jamiyat ustav fondi (kapitali)ning 15% (o‘n besh foiz) dan kam bo‘lmagan miqdorida zaxira fondi tashkil etiladi. Jamiyatning zaxira fondi belgilangan miqdorga etguniga qadar sof foydaning 5% (besh foiz)dan kam bo‘lmagan miqdordagi yillik majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi.
- 10.2. Boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning zararlari o‘rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi.
- 10.3. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.
- 10.4. Jamiyatning zaxira fondi to‘liq yoki qisman foydalanilgan hollarda majburiy ajratmalar qayta tiklanadi.
- 10.5. Jamiyat Qonunchilik bilan belgilangan tartibda boshqa fondlarni tuzishga haqli.

11. DIVIDENDLARNI TO‘LASH TARTIBI

- 11.1. Qonunchilikka muvofiq byudjetga soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar amalga oshirilganidan keyin Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi qarori asosida dividendlar qo‘rinishida aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadi.
- 11.2. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra, hamda Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa tartibda, joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.
- 11.3. Aksiyalarning har bir turi bo‘yicha dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagi qaror Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma‘lumotlari asosida Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlar to‘lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Dividendlarni to‘lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran 60 (oltmish) kundan kech bo‘lmasligi lozim.
- 11.4. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo‘yicha dividendlar aksiyalar nominal qiymatining 25% (yigirma besh foiz) miqdorida to‘lanadi.
- 11.5. Jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘lanadigan dividendning miqdori (tugatilish qiymati) imtiyozli aksiyalar nominal qiymatining 100% (yuz foiz) ni tashkil etadi.

12. JAMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI

- 12.1. Jamiyatning boshqaruv organlari quyidagilardir:
 - (1) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi;
 - (2) Kuzatuv kengashi;

(3) Boshqaruv.

13. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHI

- 13.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Jamiyatning oliy boshqaruv organi hisoblanadi.
- 13.2. Jamiyat har yili Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi (aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi)ni o‘tkazishi shart.
- 13.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi moliya yili tugaganidan keyin 6 (olti) oydan kechiktirmay o‘tkaziladi.
- 13.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlari navbatdan tashqari hisoblanadi.
- 13.5. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi sanasi va o‘tkazish tartibi, yig‘ilish o‘tkazilishi to‘g‘risida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga taqdim qilinadigan materiallar (axborotlar)ning ro‘yxati Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.
- 13.6. Jamiyat Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining vakolatlari quyidagilar kiradi:
 - (1) Ustavga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash, Kuzatuv kengashi vakolatiga berligan holatlar, bundan mustasno;
 - (2) Jamiyatni qayta tashkil etish;
 - (3) Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash, oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
 - (4) e‘lon qilingan aksiyalarning eng qo‘p miqdorini belgilash;
 - (5) qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror va emissiya risolasini (ommaviy joylashtirilgan taqdirda) tasdiqlash;
 - (6) qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga va emissiya risolasiga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish va ularning matnini tasdiqlash;
 - (7) Jamiyatning ustav fondi (kapitali) ni kamaytirish;
 - (8) Jamiyat tomonidan o‘z aksiyalarini olish bilan bog‘liq qaror qabul qilish;
 - (9) Jamiyat aksiyalarni yiriklashtirish va maydalash;
 - (10) Jamiyat tashkiliy tuzilmasini, unga kiritiladigan o‘zgartirishlarni Kuzatuv kengashi tomonidan ma‘qullangandan so‘ng tasdiqlash;
 - (11) Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining son tarkibini belgilash, ularning a‘zolarini saylash va a‘zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - (12) Kuzatuv kengashi a‘zolariga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalari miqdorlarini belgilash;
 - (13) Boshqaruv raisi – Bosh direktorni tayinlash, uning vakolat muddatlarini uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish;
 - (14) Boshqaruv raisi – Bosh direktor va Boshqaruvning qolgan a‘zolariga to‘lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash, shuningdek ularga o‘zgartirish kiritish masalarini Kuzatuv kengashi tomonidan ma‘qullangandan so‘ng tasdiqlash;
 - (15) Jamiyat ijroiya organining vakolatlarini tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berish, ishonchli boshqaruvchiga to‘lanadigan kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash, ishonchli boshqaruvchi bilan shartnoma tuzish va bekor qilish;
 - (16) Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek, Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o‘rta muddatga va uzoq muddatga

rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

- (17) Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash, shuningdek dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror qabul qilish;
 - (18) Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir Qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;
 - (19) imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;
 - (20) balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 50% (ellik foizi) dan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish, hamda yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda tegishli qaror qabul qilish;
 - (21) Jamiyat tomonidan qaror qabul qilish sanasida Jamiyat sof aktivlari miqdorining 50% (ellik foizi) dan ortig'ini tashkil etuvchi moliyalashtirishni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar (shartnomalar) tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - (22) Qonunchilikda belgilangan tartib va holatlarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - (23) majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
 - (24) "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida", "Kuzatuv kengashi to'g'risida", "Boshqaruv to'g'risida", "Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari uchun tanlov o'tkazish va nomzodlarni tanlab olish to'g'risida"gi nizomlarni tasdiqlash;
 - (25) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
 - (26) Qonunchilik va Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal qilish.
- 13.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Kuzatuv kengashi tomonidan hal etilishi uchun berilishi mumkin emas.
- 13.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masala bo'yicha qaror yig'ilishda ishtirok etayotgan Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalar egalarining – aksiyadorlarning ko'pchiligi (oddiy ko'pchilik) tomonidan qabul qilinadi.
- 13.9. Ustavning 13.6-bandining (1), (2), (3), (4), (18), (20), (21) va (22) kichik bandlarida ko'rsatib o'tilgan masalalar bo'yicha qaror Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning $\frac{3}{4}$ (to'rt dan uch qismi) dan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.
- 13.10. Agarda Jamiyatning barcha oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo'lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Qonunchilik va Ustav bilan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozim, Jamiyatning imtiyozli aksiyalari Qonunchilikka muvofiq ovoz berish huquqini olishi hollari bundan mustasno.
- 13.11. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatiga kiruvchi masalalar aksiyador tomonidan mustaqil ravishda qaror qabul qilish orqali amalga oshiriladi.
- 13.12. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilgandan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmasdan ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Har ikkala nusxasi ham Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va yig'ilish kotibi

(yagona aksiyadorning vakolatli vakili) tomonidan imzolanadi.

- 13.13. Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibi Qonunchilik, Ustav va "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida" gi nizom bilan belgilanadi.

14. KUZATUV KENGASHI

- 14.1. Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, Qonunchilik va Ustavga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.
- 14.2. Kuzatuv kengashi 9 (to'qqiz) nafar a'zodan iborat bo'lib, ularning kamida 2 (ikki) nafari mustaqil a'zolar bo'lishi shart.
- 14.3. Kuzatuv kengashi a'zolari Qonunchilik, Ustav va "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi va "Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoli uchun tanlov o'tkazish va nomzodlarni tanlab olish to'g'risida"gi nizomlarda ko'rsatilgan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadi.
- 14.4. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin.
- 14.5. Kuzatuv kengashi tarkibini shakllantirish tartibi, shuningdek, Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslar, shu jumladan, mustaqil a'zolarga nisbatan qo'yiladigan talablar "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi va "Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoli uchun tanlov o'tkazish va nomzodlarni tanlab olish to'g'risida" nizomlarda belgilanishi mumkin.
- 14.6. Kuzatuv kengashining raisi va uning o'rinbosari Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi. Bunda, Kuzatuv kengashi o'z raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqlidir.
- 14.7. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarining kun tartibini tasdiqlaydi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.
- 14.8. Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifalarini Kuzatuv kengashi raisi o'rinbosari yoki Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.
- 14.9. Kuzatuv kengashining majlislari Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Kuzatuv kengashi a'zosi, Ichki audit xizmati, Korporativ kotibiyat, komplaens xizmati yoki Boshqaruv talabiga ko'ra chaqirilishi mumkin. Bunda majlisni chaqirish talab qilayotgan shaxs Kuzatuv kengashi majlisida ko'rib chiqish uchun kiritilayotgan masalalar ro'yxati va ularga doir bo'lgan materiallar (axborotlar)ni ilova qilgan holda Korporativ kotibiyatga taqdim etishi lozim. Korporativ kotibiyat taqdim etilgan ma'lumotlar asosida:
- (1) majlis kun tartibiga kiritilayotgan masalalar Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga taaluqliligi yoki taaluqli emasligi nuqtai nazaridan tekshiradi;
- (2) majlis kun tartibiga kiritilayotgan masalalarga oid materiallar (axborotlar) to'liq taqdim qilinganligini o'rganib chiqadi va kelishib beradi (viza) hamda, zaruriyat bo'lganda, o'z xulosasini beradi.
- 14.10. Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kquorum Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75% (etmish besh foizi) dan kam bo'lmasligi lozim.
- 14.11. Kuzatuv kengashi raisining qaroriga binoan, Kuzatuv kengashining majlisi a'zolarining bevosita ishtiroki orqali (shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish orqali) yoki sirdan (so'rov yo'li bilan) o'tkazilishi mumkin. Kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, Kuzatuv kengashining majlis bayonnomalari elektron shaklda

rasmiylashtirilishi mumkin.

- 14.12. Kuzatuv kengashi majlisini tegishli materiallar (axborotlar) ilova qilingan holda chaqirish to'g'risidagi talab Kuzatuv kengashi raisiga Kuzatuv kengashi majlisining taklif etilayotgan kun tartibini o'z ichiga olgan tegishli yozma xabarnoma yuborish orqali taqdim etiladi. Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish to'g'risidagi talab kelib tushgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni mobaynida chaqirish yoki chaqirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim.
- 14.13. Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan chaqiruv to'g'risida so'rov olingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay chaqirilishi kerak. Bunday majlisga belgilangan talabni taqdim etgan shaxs taklif etilishi lozim.
- 14.14. Kuzatuv kengashining raisi, quyidagi holatlardan tashqari, Kuzatuv kengashining majlisini chaqirishni rad etishga haqli emas:
 - (1) majlis chaqirish to'g'risidagi talab Qonunchilik va (yoki) Ustavga zid bo'lsa;
 - (2) Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilayotgan shaxsda bunday talab etish huquqi mavjud bo'lmasa;
 - (3) agar Kuzatuv kengashi ko'rib chiqish uchun taklif qilingan barcha masalalarni hal qilish Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatiga kirmasa.
- 14.15. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) Kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarning o'rni qoplanishi mumkin. Bunda Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan Jamiyat faoliyati yuzasidan amalga oshirilgan xizmat safari harajatlari mustasno va bunday xizmat safari bilan bog'liq harajatlar Boshqaruv qaroriga muvofiq Qonunchilikda belgilangan me'yorlarda qoplanishi mumkin.
- 14.16. Kuzatuv kengashi vakolatlariga quyidagilar kiradi:
 - (1) Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Boshqaruvning hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
 - (2) Qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish;
 - (3) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
 - (4) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
 - (5) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;
 - (6) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritiladigan masalalarni oldindan ko'rib chiqib ma'qullash;
 - (7) Boshqaruv faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
 - (8) Jamiyat mol-mulkining bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
 - (9) Jamiyatning yillik moliyaviy hisobotlarni dastlabki tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta'minlash;
 - (10) Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasini Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;
 - (11) investitsiya dasturi va loyihalarini tasdiqlash;
 - (12) Kuzatuv kengashining qo'mitalari yoki boshqa ishchi guruh/organlarni tashkil etish, mazkur qo'mita va ishchi guruh/organlari faoliyati va ishlash tartibi, ularning tarkibi, vazifa va vakolatlar doirasini belgilash to'g'risida nizomlarini

tasdiqlash;

- (13) Kuzatuv kengashi qo'mitalari tomonidan kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- (14) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq Boshqaruv Raisi – Bosh direktor vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda Boshqaruv Raisi – Bosh direktor lavozimiga yangi shaxs tayinlangunga qadar uning vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi shaxsni tayinlash;
- (15) Boshqaruv raisi – Bosh direktordan tashqari, Boshqaruv a'zolarini tayinlash, ularning vakolat muddatlarini uzaytirish yoki muddatidan ilgari tugatish;
- (16) Jamiyatning muhim rahbarlik lavozimlari (muhim rahbarlar) ro'yxatini tasdiqlash;
- (17) Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri va (yoki) Boshqaruv Raisi – Bosh direktorning taklifiga asosan Jamiyatning muhim rahbarlik lavozimlariga nomzodlar tayinlashni kelishish;
- (18) Korporativ kotibiyatni tuzish, xodimlarini tayinlash va egallab turgan lavozimdan ozod etish, ularga to'lanadigan haq miqdorini belgilash, rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralari ko'rish, shuningdek, har chorakda Korporativ kotibiyat hisobotlarini eshitish;
- (19) “Korporativ kotibiyat to'g'risida”gi nizomni tasdiqlash;
- (20) Audit qo'mitasining taqdimnomasiga asosan Ichki audit xizmatini tuzish va nizomini tasdiqlash, uning xodimlarini tayinlash va egallab turgan lavozimdan ozod etish, shuningdek, har chorakda uning hisobotlarini eshitish;
- (21) Komplayens xizmatini tuzish va nizomini tasdiqlash, hamda Komplayens xizmati boshlig'ini tayinlash va egallab turgan lavozimdan ozod etish, shuningdek, har chorakda uning hisobotlarini eshitish;
- (22) auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish yoki shartnomani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish;
- (23) dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- (24) Jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;
- (25) Jamiyat filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
- (26) sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish;
- (27) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki (yuridik shaxslar ustav kapitalidagi ulushlari va (yoki) aksiyalari) bilan bog'liq bitimlarni Konunchilikda belgilangan tartibda tuzish;
- (28) balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15% (o'n besh foizi) dan 50% (ellik foizi) gacha tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish yuzasidan qaror qabul qilish;
- (29) Jamiyat tomonidan qarorni qabul qilish sanasida Jamiyat barcha sof aktivlari miqdorining 5% (besh foizi) dan 50% (ellik foiz) gacha tashkil etuvchi moliyalashtirishni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar (shartnomalar) tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- (30) Qonunchilikda belgilangan tartib va holatlarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- (31) Jamiyat tomonidan hayriya, homiylik va beg'araz yordam ko'rsatish hamda

Boshqaruv qarori asosida taqdim etilishi mumkin bo'lgan hayriya, homiylik va beg'araz yordam ko'rsatish umumiy limitini belgilash yuzasidan Qonunchilikda ko'zda tutilgan shartlarni inobatga olgan holda qaror qabul qilish;

- (32) Boshqaruvga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini, Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirishlarni ma'qullash hamda tasdiqlash uchun Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish;
 - (33) Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
 - (34) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;
 - (35) Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - (36) qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - (37) Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - (38) Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni tashkillashtirish, baholash huquqiga ega mustaqil tashkilotni tanlov asosida tanlash;
 - (39) Qonunchilik va Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal qilish.
- 14.17. Ustavning 14.16-bandining (28) va (30) kichik bandlarida ko'rsatilgan masalalar Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisining boshqa masalalar yuzasidan qarorlar majlisda ishtirok etayotgan a'zolarining ko'pchiligi tomonidan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi qarori Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan sirdan (so'rovnoma shaklida) bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.
- 14.18. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan masalalar Boshqaruv tomonidan hal etilishi uchun berilishi mumkin emas.
- 14.19. Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.
- 14.20. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashi boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 14.21. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi raisi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega bo'ladi.
- 14.22. Kuzatuv kengashining ishlash tartibi Qonunchilik, Ustav va "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom bilan belgilanadi.
- 14.23. Kuzatuv kengashiga kiritiladigan masalalarni dastlabki ko'rib chiqish va faoliyatini tartibga soluvchi nizomlarda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarish uchun Kuzatuv kengashi huzurida qo'mitalar va/yoki ishchi guruhlar tashkil etiladi.
- 14.24. Kuzatuv kengashi qo'mitalari Ustavning 14.25-bandida qayd etilgan qoidalarni hisobga olgan holda Kuzatuv kengashi a'zolaridan tashkil etadi.
- 14.25. Kuzatuv kengashi qo'mitalariga ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqsiz aniq bir qo'mitada ishlash uchun zarur bo'lgan kasbiy malaka, bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan ekspertlar va mutaxassislarni jalb etilishi mumkin.
- 14.26. Kuzatuv kengashi qo'mitalarini shakllantirish tartibi, faoliyati, vazifalari va vakolatlari, shuningdek, ularning Boshqaruv va Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro munosabatlari Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar bilan belgilanadi.

15. BOSHQARUV

- 15.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijroiya organi – Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi.
- 15.2. Boshqaruv 6 (olti) nafar a'zolaridan iborat.
- 15.3. Boshqaruv raisi – Bosh direktor Aksiyadorlarning umumiy yigilishi tomonidan va Boshqaruvning qolgan a'zolari esa Kuzatuv kengashi tomonidan 3 (uch) yil muddatga tayinlanadilar.
- 15.4. Boshqaruv raisi – Bosh direktor vakolatlari Aksiyadorlarning umumiy yigilishi qaroriga muvofiq, Boshqaruvning qolgan a'zolarining vakolatlari esa Kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq uzaytirilishi yoki muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.
- 15.5. Boshqaruv raisi – Bosh direktor quyidagi masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashi bilan kelishmagan holda o'z buyrug'i asosida qaror qabul qilishi mumkin:
 - (1) Boshqaruv a'zosi va (yoki) muhim rahbarga mehnat ta'tilini berish hamda xizmat safariga yuborish;
 - (2) Boshqaruv a'zosi va (yoki) muhim rahbar ma'lum sabablarga ko'ra vaqtinchalik ishda bo'lmagan davrda (mehnat ta'tili, xizmat safari, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik) ushbu lavozimlar bo'yicha vazifalarni vaqtinchalik bajarishni Jamiyatning boshqa xodimlariga yuklatish.
- 15.6. Boshqaruvga Boshqaruv raisi – Bosh direktor rahbarlik qiladi. Boshqaruv raisi – Bosh direktor Jamiyat nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi.
- 15.7. Boshqaruv raisi – Bosh direktor sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ushbu lavozimga tayinlanishi mumkin emas.
- 15.8. Boshqaruv raisi – Bosh direktor vakolatlari muddatidan oldin tugatilganda Boshqaruv raisi – Bosh direktor tayinlanadigan navbatdagi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilgunga qadar bo'lgan davrda uning vazifalari Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan shaxs tomonidan vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.
- 15.9. Boshqaruv raisi – Bosh direktor va Boshqaruvning qolgan a'zolari bilan 3 (uch) yil muddatga mehnat shartnomalari tuzilib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Boshqaruv raisi – Bosh direktor bilan mehnat shartnomasi Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolanadi. Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomalari Jamiyat nomidan Boshqaruv raisi – Bosh direktor tomonidan imzolanadi.
- 15.10. Boshqaruv raisi – Bosh direktor vakolatlariga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Ustavning 15.14-bandi bilan Boshqaruv vakolatlariga kiritilgan masalalardan tashqari Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish bo'yicha barcha masalalar kiradi. Xususan, **Boshqaruv raisi – Bosh direktor vakolatlariga quyidagilar kiradi:**
 - (1) Ustavning 15.14-bandiga muvofiq Boshqaruv bilan kelishgan holda Jamiyatning manfaatlarini ifoda etish va bitimlar tuzish;
 - (2) Jamiyat tomonidan Qonunchilik va (yoki) Ustav bilan Jamiyatning boshqa boshqaruv organlarining vakolatiga kiritilmagan shartnomalar/ bitimlarni tuzish;
 - (3) Qonunchilik va Ustavda belgilangan tartibda o'z vakolatlari doirasida mol- mulk va pul mablag'larini tasarruf etish;
 - (4) Jamiyatning ichki faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash (Boshqaruv tomonidan kollegial ravishda, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va (yoki) Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlar bundan mustasno);
 - (5) Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritishni tashkil etish;

- (6) Jamiyat xodimlarining vakolatlarini taqsimlash;
 - (7) Jamiyat tarkibiy bo‘linmalari orasidagi o‘zaro munosabatlarini ta’minlash;
 - (8) Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruvning qarorlarini bajarilishini tashkil etish;
 - (9) o‘z vakolatlari doirasida Jamiyat nomidan ishonchnomada ko‘rsatib o‘tilgan harakatlarni amalga oshirish huquqini beruvchi yakka tartibda ishonchnomalar taqdim etish;
 - (10) Boshqaruv a‘zolari, muhim rahbarlari va tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga ish beruvchi huquqini taqsimlash to‘g‘risida buyruqlar qabul qilish;
 - (11) tasdiqlangan biznes-reja, investitsiya dasturi va ishlab chiqarish dasturining bajarilishini ta’minlash;
 - (12) texnika xavfsizligi va atrof-muhitni muxofaza qilish qoidalariga rioya etilishini ta’minlash;
 - (13) uskunalardan foydalanishning xavfsiz rejimi va standartlariga muvofiqligini ta’minlash;
 - (14) Boshqaruv bilan kelishilgan holda Jamiyat xodimlariga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini o‘rnatish bo‘yicha ichki lokal hujjatlarni (nizom, tartib) va Jamiyat tarkibiy bo‘linmalarining tashkiliy tuzilmalarini tasdiqlash;
 - (15) Jamiyatning shtatlar jadvali va lavozimlar nomenklaturasini tasdiqlash hamda Jamiyat xodimlariga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash (Boshqaruv a‘zolari, Ichki audit xizmati, Komplaens xizmati, Korporativ kotibiyat xodimlari bundan mustasno);
 - (16) Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda Jamiyat muhim rahbarlarini tayinlash;
 - (17) Boshqaruv bilan kelishilgan holda Jamiyat filial va vakolatxonalarining rahbarlarini tayinlash;
 - (18) Boshqaruv bilan kelishilgan holda Jamiyat muhim rahbarlari hamda Jamiyat filial va vakolatxonalarining rahbarlariga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;
 - (19) Jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzish va bekor qilish, ularni rag‘batlantirish yoki ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini ko‘rish;
 - (20) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi yoki Boshqaruvning vakolatlariga kirmaydigan boshqa masalalarni hal qilish.
- 15.11. Boshqaruv majlisi zarur hollarda, biroq har oyda kamida 1 (bir) marta o‘tkazilishi lozim.
- 15.12. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a‘zosi bitta ovozga ega bo‘ladi. Boshqaruvning bir a‘zosi o‘z ovozini Boshqaruv boshqa a‘zosi berishiga yo‘l qo‘yilmaydi.
- 15.13. Boshqaruv majlisini o‘tkazish uchun kворum Boshqaruv a‘zolarining kamida 65% (oltmish besh foizi)dan kam bo‘lmasligi lozim. Boshqaruv a‘zolarining ovozlari teng bo‘lgan taqdirda Boshqaruv raisi – Bosh direktor ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.
- 15.14. **Boshqaruv vakolatlariga quyidagilar kiradi va kollegial tartibda hal etilishi shart:**
- (1) Jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari va ularni amalga oshirishning istiqbolli rejalarini ishlab chiqish va ko‘rib chiqish uchun Kuzatuv kengashiga kiritish;
 - (2) Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o‘rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashi orqali Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga kiritish;

- (3) Jamiyatning yillik moliyaviy hisoboti, yillik biznes-reja, yillik balanslar, foyda va zarar to'g'risidagi hisobotlarni, Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobot va boshqa zarur hisobot hujjatlarini ishlab chiqish va Kuzatuv kengashiga taqdim etish;
 - (4) Jamiyatning biznes-rejasi parametrlarini bajarilishi yuzasidan choraklik hisobotlarni ishlab chiqish va ko'rib chiqish uchun Kuzatuv kengashiga taqdim etish;
 - (5) balans qiymati yoki olish qiymati bitim (shartnoma) tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 1% (bir foiz)dan 15% (o'n besh foiz)gacha tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish yuzasidan qaror qabul qilish;
 - (6) Jamiyat tomonidan qarorni qabul qilish sanasida Jamiyat sof aktivlari qiymatining 5% (besh foiz) gacha tashkil etuvchi moliyalashtirishni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar (shartnomalar) tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - (7) Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan limit doirasida Jamiyat tomonidan hayriya, homiylik va beg'araz yordam ko'rsatish yuzasidan Qonunchilikda ko'zda tutilgan shartlarni inobatga olgan holda qaror qabul qilish;
 - (8) Jamiyat xodimlariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini o'rnatish bo'yicha ichki lokal hujjatlarni (nizom, tartib) va Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining tashkiliy tuzilmalarini kelishish;
 - (9) Jamiyat filial va vakolatxonalarini rahbarlari lavozimlariga nomzodlarni tayinlashni kelishish;
 - (10) Jamiyat muhim rahbarlari hamda Jamiyat filial va vakolatxonalarining rahbarlariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini kelishish;
 - (11) Boshqaruv qo'mitalarini tashkil etish, mazkur qo'mitalar faoliyati va ishlash tartibi, ularning tarkibi, vazifa va vakolatlar doirasini belgilash to'g'risida nizomlarni tasdiqlash;
 - (12) Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining faoliyatlari natijalarini ko'rib chiqish;
 - (13) Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha masalalar yuzasidan Jamiyat faoliyatini muvofiqlashtirish va ular faoliyati natijalarini ko'rib chiqish;
 - (14) Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarining aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan qayta tashkil etish, yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlarni tuzish, ustav fondi (kapitali)ni ko'paytirish masalalari yuzasidan Jamiyatning fikri (taklifi, yondashuvi) to'g'risida qaror qabul qilish;
 - (15) ijtimoiy dasturlarni tasdiqlash;
 - (16) Jamiyat tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risida takliflarni Kuzatuv kengashiga kiritish;
 - (17) Jamiyatga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulklarni Jamiyatning balans hisobidan chiqarish bo'yicha qaror qabul qilish;
 - (18) Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan Jamiyat faoliyati yuzasidan amalga oshirilgan xizmat safari harajatlarini qoplash to'risida qaror qabul qilish;
 - (19) Qonunchilik va Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal qilish.
- 15.15. Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlari bilan Boshqaruv raisi – Bosh direktor va Boshqaruv a'zolariga ularning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga asosan rag'batlantirish to'lovlari belgilanishi mumkin.
- 15.16. Boshqaruvning ishlash tartibi "Boshqaruv to'g'risida"gi nizom bilan belgilanadi.

- 15.17. Boshqaruvning huquqlari va majburiyatlari Qonunchilik, Ustav, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "Boshqaruv to'g'risida" gi nizom bilan belgilanadi.
- 15.18. Boshqaruv tomonidan o'z vakolati doirasidagi masalalarni dastlabki tarzda o'rganib chiqish va ushbu masalalar yuzasidan Boshqaruvga tavsiyalar tayyorlash hamda faoliyatini tartibga soluvchi nizomlarda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarish uchun Boshqaruv huzurida qo'mitalar va/yoki ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin.
- 15.19. Boshqaruv huzuridagi qo'mita va ishchi guruhlar faoliyatini tashkil etish maqsadida zarur bo'lgan kasbiy malaka, bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan Jamiyat mutaxassislari yoki tashqi ekspertlar jalb etilishi mumkin.
- 15.20. Boshqaruv huzuridagi qo'mita va ishchi guruhlarini shakllantirish va faoliyat yuritish tartibi, ularning tarkibi, vazifalari va funksiyalari, huquqlari, shuningdek, Boshqaruv va Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro munosabatlari Boshqaruv tomonidan tasdiqlanadigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

16. KUZATUV KENGASHI VA BOSHQARUV A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI

- 16.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi tutishi lozim.
- 16.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari Qonunchilikka muvofiq javobgardirlar.
- 16.3. Jamiyatga zarar etkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi bundan Qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

17. MINORITAR AKSIYADORLAR QO'MITASI

- 17.1. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan Jamiyatda ularning orasidan minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.
- 17.2. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar Jamiyatga Kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.
- 17.3. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.
- 17.4. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga Boshqaruv a'zolari, shuningdek jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.
- 17.5. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:
 - (1) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;
 - (2) minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;
 - (3) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;
 - (4) Qonunchilik va Ustavga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.
- 17.6. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining majlislari uning miqdor tarkibiga saylangan

shaxslarning kamida $\frac{3}{4}$ (to‘rt dan uch) qismi hozir bo‘lganda vakolatlidir.

- 17.7. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasi a‘zolarining soni 5 (besh) nafardan ortiq bo‘lmasligi lozim.
- 17.8. Minoritar aksiyadorlarning qo‘mitasi qabul qilingan qarorlar to‘g‘risida har yili Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida hisobot beradi.
- 17.9. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining raisi ushbu qo‘mita tarkibidan minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining a‘zolari tomonidan ko‘pchilik ovoz bilan saylanadi.

18. ICHKI AUDIT XIZMATI VA TASHQI AUDITORLIK TASHKILOTI

- 18.1. Ichki audit xizmati Jamiyatning Boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan Qonunchilikka, Ustavga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma‘lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta‘minlanishni, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning Boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.
- 18.2. Ichki audit xizmati Audit qo‘mitasiga va Kuzatuv kengashiga bo‘ysunadi va hisobot beradi. Ichki audit xizmatining vazifalari va funksiyalari, vakolatlari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, shuningdek faoliyati tartibi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan “Ichki audit xizmati to‘g‘risida” gi nizom bilan belgilanadi.
- 18.3. Ichki audit xizmati boshlig‘i va uning hodimlari Audit qo‘mitasi taqdimnomasiga asosan Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va egallab turgan lavozimdan ozod etiladi.
- 18.4. Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan tartibda Kuzatuv kengashiga Jamiyat faoliyati to‘g‘risida ob‘ektiv ma‘lumotlarni, shuningdek zarur tushuntirish va izohlarni to‘liq va o‘z vaqtida taqdim etadi.
- 18.5. Jamiyat va Ichki audit xizmati xodimlari o‘rtasidagi mehnat munosabatlari mehnat qonunchiligi, Ustav va Jamiyatning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.
- 18.6. Jamiyatning moliyaviy, hisob va hisobot hujjatlarining har yillik tashqi auditini amalga oshiruvchi, halqaro, mustaqil, etakchi auditorlik tashkiloti Jamiyat tomonidan Ustav va Qonunchilik bilan belgilangan tartibda jalb etilishi lozim. Tashqi auditorlik tashkilotining vazifasi Jamiyat moliyaviy hisoboti haqqoniyligini, Jamiyat tomonidan Qonunchilikka rioya etilishni tasdiqlashdir. Jamiyat xodimlari bunday auditni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha ma‘lumot va hujjatlarni tashqi auditorlik tashkilotiga taqdim qilishlari shart.

19. KOMPLAYENS XIZMATI

- 19.1. Komplayens xizmati Jamiyat faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etiladigan, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash hamda chek qo‘yish, qonun buzilishi va huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o‘zida mujassam etgan mustaqil tarkibiy tuzilma hisoblanadi.
- 19.2. Komplayens xizmati Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasiga va Kuzatuv kengashiga hisobdordir. Komplaens xizmatining vazifalari va funksiyalari, vakolatlari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, shuningdek faoliyati tartibi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan “Komplaens xizmati to‘g‘risida” gi nizom bilan belgilanadi.
- 19.3. Komplayens xizmati boshlig‘i Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi taqdimnomasiga asosan Kuzatuv kengashi tomonidan Qonunchilikda belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va egallab turgan lavozimdan ozod etiladi.

- 19.4. Komplayens xizmati hodimlari Komplayens xizmati rahbarining taqdimnomasiga asosan Boshqaruv raisi – Bosh direktor tomonidan lavozimga tayinlanadi va egallab turgan lavozimdan ozod etiladi.
- 19.5. Jamiyat va Komplayens xizmati xodimlari o'rtasidagi mehnat munosabatlari mehnat qonunchiligi, Ustav va Jamiyatning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

20. KORPORATIV KOTIBIYAT

- 20.1. Jamiyatda korporativ qonunchiligi talablari, korporativ boshqaruvi tamoyillari, Ustav me'yorlari va korporativ boshqaruvi masalalariga oid Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash va nazoratini amalga oshirish maqsadida Korporativ kotibiyat joriy etiladi.
- 20.2. Korporativ kotibiyatni tuzish, uning xodimlarini tayinlash va egallab turgan lavozimdan ozod etish Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Korporativ kotibiyatga Kotibiyat mudiri - Korporativ maslahatchi tomonidan rahbarlik qilinadi.
- 20.3. Korporativ kotibiyat xodimlari Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lmagan Jamiyat xodimlari hisoblanadi. Korporativ kotibiyat xodimlari o'z faoliyatlarida Jamiyatning ijroiya organidan to'liq mustaqildir.
- 20.4. Jamiyatda korporativ qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda Jamiyatdagi korporativ boshqaruvi joriy holatini xolisona baholashni ta'minlash maqsadida Korporativ kotibiyat faoliyatiga aralashish, to'sqinlik qilish yoki unga nisbatan boshqa tarzda tazyiq o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.
- 20.5. Korporativ kotibiyat xodimlari Jamiyatning boshqaruv organlari o'rtasida samarali ma'lumot almashinuviga yordam beradi hamda Jamiyatda korporativ boshqaruvi bilan bog'liq barcha masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashi va Boshqaruv maslahatchisi vazifasini bajaradi hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi majlislarida kotib vazifasini amalga oshiradi.
- 20.6. Korporativ kotibiyat Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi majlislariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazilishini nazorat qiladi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi majlislari uchun materiallar (axborotlar)ni shakllantirish va ulardan foydalanishni ta'minlaydi.
- 20.7. Korporativ kotibiyat qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda Jamiyat faoliyatiga doir axborot va muhim faktlarni oshkor etishni tashkil etadi.
- 20.8. Korporativ kotibiyatning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:
- (1) Korporativ boshqaruvning ilg'or amaliyotlarini Jamiyatda tatbiq etishni tashkillashtirish;
 - (2) Jamiyatda korporativ qonunchiligi va korporativ boshqaruvi tamoyillariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
 - (3) Korporativ qonunchiligi, Ustav me'yorlari va korporativ boshqaruvi tamoyillariga zid ravishda Jamiyatda qabul qilingan buyruqlar, qarorlar va (yoki) ichki hujjatlarni bekor qilish yuzasidan Boshqaruv va Kuzatuv kengashiga taqdimnoma kiritish;
 - (4) Jamiyatda korporativ qonunchiligi va korporativ boshqaruv tamoyillarini buzish holatlarini oldini olish hamda buzish holatlari aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish yuzasidan Boshqaruvga yozma ravishda ko'rsatmalar berish;
 - (5) Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibiga kiritiladigan masalalar va materiallar (axborotlar)ni ko'rib chiqish, kelishish (viza) hamda, zaruriyat bo'lganda, o'z xulosasini berish;
 - (6) Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar talab etish yuzasidan Kuzatuv kengashi nomidan yozma ravishda Boshqaruvga murojaat etish;

- (7) Kuzatuv kengashi majlis kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha bayonnomalar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish uchun Kuzatuv kengashi a'zolariga taqdim etish;
 - (8) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari va Kuzatuv kengashi bayonnomalari saqlanishini tashkil etish, ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish va reestrini yuritish;
 - (9) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari va Kuzatuv kengashi bayonnomalarining nusxalari asl nusxasiga to'g'ri ekanligini tasdiqlash hamda ushbu hujjatlarning ko'chirmalarini tayyorlash va tasdiqlash;
 - (10) Jamiyatda korporativ boshqaruvi holati yuzasidan hisobotni yuritish hamda har yil yakuni bo'yicha korporativ boshqaruvini baholashni tashkil etish;
 - (11) Jamiyatda korporativ boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni Kuzatuv kengashiga kiritish.
- 20.9. Korporativ kotibiyatning vazifalari va funksiyalari, vakolatlari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, shuningdek faoliyati tartibi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan "Korporativ kotibiyat to'g'risida"gi nizom bilan belgilanadi.

21. BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTI, YILLIK MOLIYAVIY HISOBOT VA BOSHQA HISOBOTLAR

- 21.1. Jamiyat Qonunchilik bilan belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishi hamda yillik moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishi shart.
- 21.2. Jamiyatning moliyaviy yili 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan taqvimiy yil hisoblanadi. Boshqaruv moliyaviy yil yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobotini tayyorlanishini ta'minlashi lozim. Bunday hisobot moliyaviy yil tugaganidan keyin 4 (to'rt) oydan kechiktirmay tayyorlanishi va dastlabki tarzda tasdiqlanishi uchun Kuzatuv kengashiga taqdim qilinishi shart.
- 21.3. Jamiyatning yillik moliyaviy hisobotida ko'rsatilgan va Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog'liq bo'lmagan tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlanishi lozim.
- 21.4. Jamiyatning yillik moliyaviy hisoboti Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 30 (o'ttiz) kun oldin Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.
- 21.5. Jamiyatning yillik moliyaviy hisoboti Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.
- 21.6. Jamiyat Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazilganidan keyin, Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 2 (ikki) hafta oldin e'lon qiladi (chop etadi).
- 21.7. Boshqaruv, Ichki audit xizmati, Komplayens xizmati va Korporativ kotibiyat o'z faoliyatlari yuzasidan xisobotlarni har chorakda Kuzatuv kengashiga taqdim etishlari lozim. Bunday hisobotlar tegishli chorak (hisobot davri) tugaganidan keyin 45 (qirq besh) kundan kechiktirmay tayyorlanishi va Kuzatuv kengashiga taqdim qilinishi shart.

22. JAMIYAT TOMONIDAN AXBOROT VA MUHIM FAKTLARNI OSHKOR QILISH. JAMIYAT HUJJATLARI

- 22.1. Jamiyat Qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda Jamiyat faoliyati to'g'risidagi axborot va muhim faktlarni oshkor qilishi lozim.
- 22.2. Jamiyat o'z faoliyati yuzasidan Qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyatning korporativ

veb-saytida, Korporativ axborot yagona portalida va O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining veb-portallarida axborot, ma’lumot va muhim faktlarni joylashtirish orqali oshkor qiladi.

- 22.3. Aksiyador yoki boshqa manfaatdor shaxsning talabiga binoan, Jamiyat Qonunchilikda nazarda tutilgan hujjatlarning nusxalarini taqdim etishga majburdir. Hujjatlarning nusxalari Qonunchilikda belgilangan muddatda taqdim etiladi, agar muddat belgilanmasa, bunday talab olingan kundan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.
- 22.4. Jamiyat Qonunchilikda va Jamiyatning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan barcha hujjatlarni saqlashga majburdir.

23. YAKUNIY QOIDALAR

- 23.1. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish Qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- 23.2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori bilan Ustavga kiritilgan barcha o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar O‘zbekiston Respublikasining tegishli davlat organi tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim.
- 23.3. Ustavga kiritilgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar yoki yangi tahrirdagi Jamiyatning Ustavi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab, amaldagi Qonunchilik bilan belgilangan hollarda esa, davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organga xabar berilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 23.4. Agar Qonunchilikda ushbu Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, unda Qonunchilik qoidalari qo‘llaniladi.
- 23.5. Ustav bilan tartibga solinmagan munosabat va (yoki) masalalar Qonunchilik bilan tartibga solinadi.
- 23.6. Mazkur Ustavning biror-bir bandi yoki qoidasi qonuniy kuchini yo‘qotsa yoki qonunchilik talabiga zid bo‘lib qolsa, bu holat Ustavning boshqa qoidalariga ta’sir etmaydi.